

Kirishga taqiq nima degani?

RF ga kirishga ijozat bermaslik chet ellik fuqaroning ishtirokisiz amalga oshiriladi, avtomatik tarzda, hujjatlar tekshirilmasdan va jarimalarsiz. Kirishga taqiq muddati:

3 yilga:

- agar siz Rossiyada ishlash uchun hujjatlarni rasmiylashtirmasdan 90 kecha-kunduzdan ortiq, davr mobaynida jamlaganda 180 kecha-kunduz;
- agar siz 3 yil davomida 2 va undan ortiq ma'muriy qonunbuzarlik qilgan bo'lsangiz va buning uchun jazolangan bo'lsangiz;
- Agar siz RF hududida qonuniy bo'lish muddatini 30 kecha-kunduzdan oshirib yuborgan bo'lsangiz;

5 yilga:

- Agar siz 1 yil davomida muhojirlik rejimini buzganlik uchun 2 va undan ko'p marta ma'muriy javobgarlikka tortilgan bo'lsangiz;
- agar siz RFda bo'lish qonuniy muddatini 180 dan 270 kecha-kunduzgacha bo'lgan davrga oshirib yuborgan bo'lsangiz;
- agar siz ilgari RFdan chiqarib yuborilgan yo deportatsiya qilingan bo'lsangiz;

10 yilga:

- agar siz RFda bo'lish qonuniy muddatini 270 kecha-kunduzdan oshirib yuborgan bo'lsangiz.

- Agar sizning RFda to'lanmagan hisoblaringiz, soliq va jarimalaringiz bo'lsa, tibbiy sug'urta polisingiz bo'lmasa yoki sudlangan muddatingiz o'tmagan bo'lsa — chegaradan o'tayotgan paytingizda sizni RF ga kiritmaslik huquqiga egadirlar

Kirishga taqiqni qanday bilish mumkin?

Agar siz hujjatlarni rasmiylashtirayotgan paytingiz vositachilar xizmatidan foydalangan bo'lsangiz — sizga aniq qalbaki hujjatlar qilib bergan bo'lishlari mumkin, va siz RF ga kirishga taqiq harakatiga tushishingiz mumkin.

Vositachilarga murojaat etmang — ular sizga qalbaki hujjatlar tayyorlab berishlari mumkin!

Ishlash uchun patentlarning haqiqiylikini quyidagi havolada tekshirish mumkin



services.guvm.mvd.rf

MVD Rossii tomonidan sizga taqiq qo'yilganini Rossiya aviashirkatlari vakolatxonalarida yoki ГУВМ МВД России saytida quyidagi havolada bilish mumkin:



services.guvm.mvd.rf

RF ga kirishga taqiqqa oid eng to'liq ma'lumotlar Пограничной службы ФСБ России ixtiyorida bo'ladi.

ps.fsb.ru

pu.spb.lenobl@fsb.ru

8 812 578 03 12

8 812 438 61 94

8 812 438 64 77

Kirishga taqiqni qanday bekor qilish mumkin?

Rossiyaga kirishni taqiqlashga oid qarorni bekor qilishlari mumkin:

- insonparvarlik asoslarida — bemorlik, kasal qarindoshlarga qarab turish, boshqa favqulodda holatlarda qonun bo'yicha belgilangan muddatlarda Rossiyadan chiqib ketish imkoniyati yo'qligi isbot etilishi mumkin bo'lgan holda;
- oila birligini saqlash uchun — agar sizning oilangiz a'zolari orasida RF fuqarolari (er/xotin, bolalar) bo'lgan va siz ulardan ayrilmasligingiz holatida;
- muhojirlik avfi tartibida — avf berishning shartlari va muddatlari RF va muhojir kelgan mamlakat o'rtasidagi bitimlarga ko'ra aniqlanadi;
- yangi paydo bo'lgan vaziyatlarga ko'ra — agar qaror xato chiqarilgan holatda;
- kirishga taqiq muddati tugaganida;
- kirishga taqiq sabablari tugatilganida.

RFga kirishga ijozat bermaslikni Главное управление по вопросам миграции МВД России ga murojaat qilib, bekor qilish mumkin — kirishga taqiqni qayta ko'rish haqidagi arizani elektron tarzda, Rossiya IIV saytidagi qolipdan foydalanib jo'natish mumkin:



Arizaga kirish uchun taqiqni bekor qilishga asosni tasdiqlovchi hujjatlarni tirkash zarur: bolalar-RF fuqarolarining tug'ilgani haqidagi guvohnomalar, nikohni qayd etishga oid ma'lumotnoma, kasallik haqidagi ma'lumotnomalar va hokazo.

Kirish uchun taqiq qarorini qayta ko'rish rad etilganda sudga shikoyat etish mumkin. Sudga shikoyat arizasini kirishni taqiq qilgan Muhojirlik masalalariga oid hududiy boshqarma joylashgan erda berish zarur.

Bepul huquqiy yordam:

Уполномоченный по правам человека в Санкт-Петербурге
ombudsmanspb.ru
8 812 241 46 77

Горячая линия Комитета по международным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге:
8 812 576 28 67

Информационно-консультационный центр Красного Креста (qochqinlar, chet ellik fuqarolar va fuqaroligi yo'q shaxslarga maslahat berish)
8 800 333 00 16
spbredcross.org

БФ «ПСП-фонд (bepul huquqiy yordam)
8 953 141 31 09 (горячая линия)
8 812 337 57 85
psp-f.org
migrussia.ru

Foydali axborot resurslari

78.mvd.rf/ms сайт Управления по вопросам миграции ГУ МВД России по Санкт-Петербургу и Ленинградской области

migrussia.ru huquqiy masalalar va moslashishga oid maslahatlar va bir necha tildagi axborot materiallari

migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru Комитета по международным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге ning muhojirlar uchun internet-resursi

Разработка текста: БФ «ПСП-фонд»
Автор-составитель: Якимов А. Н.
Редактор: Панич Б. Л.
Дизайнер: Костенко А. А.
Тираж: 1500 экз.

Буклет «Ответственность за нарушение миграционного законодательства РФ» (на узбекском языке)
Изготовлено на средства субсидии Комитета по международным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге



Комитет по международным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге



БФ «ПСП-ФОНД»

Sankt-Peterburgga xush kelibsiz!



Mehnat muhojiriga yordam

RF muhojirlik qonunchiligini buzganligi uchun javobgarlik

2022

Muhojirlik qonunchiligini buzganligi uchun qat'iy javobgarlik belgilangan — jarimalar, chiqarib yuborish, Rossiyaga kirishni ta'qiqlash va hatto ozodlikdan mahrum etish. Siz Rossiya qonunchiligi talablariga qat'iy rioya etishingiz va har qanday qonunbuzishlarga yo'l qo'ymasligingiz zarur!

Muhojirlik qoidalariga qanday rioya etmoq zarur?

Har bir chet ellik fuqaro majbur:

- kelgan joyida o'z vaqtida muhojirlik qaydini rasmiylashtirishi (registratsiyadan o'tishi);
- albatta muhojirlik qaydi/registratsiyadan o'tgan erda yashashi;
- muhojirlik qaydiga qo'yishda to'g'ri ma'lumotlar ko'rsatishi;
- hujjatlar tekshirilishini ko'zda tutib o'zi bilan pasport va muhojirlik hujjatlari (muhojirlik kartasi, registratsiya, tibbiy polis)ni olib yurishi;
- muhojirlik kartasida RFGa kelishdan maqsadni to'g'ri ko'rsatish — bu sizning asosiy faoliyat turingiz (ish, o'qish va hokazo) bilan to'g'ri kelishi zarur

O'zbekiston, Tojikiston, Moldova va Ozarboyjonlik ishchilar shuningdek majburdirlar:

- ishlash uchun patentni kelganlaridan so'ng 30 kun davomida kechiktirmasdan o'z vaqtida rasmiylashtirishlari;
- o'z vaqtida va oldindan (kamida 1 oy oldin) ishlash uchun patentni to'lash;
- hujjarlarni tekshirish holatlarida to'lov haqidagi cheklari bilan ishlash uchun patentning o'zida bo'lishi;
- ijozat berilgan hujjatlar va patentdagi ixtisos bo'yicha ishlash;
- ixtisos, ish mintaqasi va amal muddati o'zgartirilgan hollarda bu o'zgarishlarni o'z vaqtida patentga kiritish.

Muhojirlik qonunchiligini buzganlik uchun qanday javobgarlik belgilangan?

- Kelish qoidasini yoki Sankt-Peterburgda turish rejimini buzish uchun — 5000-7000 rubl jarimaga tortish va Rossiyadan chiqarib yuborish mumkin
- Sankt-Peterburgda noqonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun — 5000-7000 rubl jarima va Rossiyadan chiqarib yuborish
- Sankt-Peterburgda muhojirlik qaydini amalga oshirishda yolg'on ma'lumotlar berganligi uchun — 5000-7000 rubl jarima va Rossiyadan chiqarib yuborish
- Ishlash uchun patent olishga murojaat muddatini kelgan sanasidan 30 kundan ko'proqqa oshirib yuborib buzganligi uchun — 10000-15000 rubl hajmida jarima

Chiqarib yuborish nima degani?

Rossiyadan ma'muriy chiqarib yuborish ikki xil bo'ladi:

- majburiy nazoratdagi: — qonun buzuvchini keyinchalik vataniga jo'natib yuborish uchun Chet ellik fuqarolarni vaqtincha ushlab turish markazi (ЦВСИГ)ga joylashtirishadi
- nazorat etiladigan mustaqil chiqib ketish yo'li bilan: — qonun buzuvchi chiqarib yuborishga oid qaror kuchga kirgan vaqtdan boshlab 2 hafta davomida Rossiyani tark etish majburiyatini oladi
- Rossiyadan chiqib ketish muddatlarini buzish 4000-5000 rubl hajmidagi jarima va majburiy chiqarib yuborish bilan jazolanadi

RFdan chiqarib yuborish mustaqil ketish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin — chet ellik fuqaro hisobida УВМ ГУ МВД России по Санкт-Петербургу и Ленинградской области ning tegishli bildiruvu bo'lganda.

Agar siz ilgari RFdan chiqarib yuborilgan yo deportatsiya qilingan bo'lsangiz — chiqarib yuborish yo deportatsiya qilinish vaqtdan boshlab 5 yil davomida RFGa kirishga ijozat berilmaydi.

Agar sizni davlat hisobidan chiqarib yuborishgan yo deportatsiya qilishgan bo'lsalar — siz RFGa bu xarajatlarni to'lashingiz zarur, yo'qsa, hatto kirish taqiqlangan muddat tugagandan so'ng ham sizni mamlakatga kiritishmaydi.

Muhojirlik sohasidagi qonun buzish uchun jazoni sud aniqlaydi. Siz sudga himoyachi xizmatidan foydalanish huquqiga egasiz. Sizning talabingizga kora sizni tarjimon bilan ta'minlashlari shart. Siz yozma qarorni olgan paytdan so'ng 10 kun davomida sud qarori ustidan shikoyat qilishingiz mumkin.

Sankt-Peterburg sudlari

courts.spb.ru

Chet ellik fuqarolarni vaqtincha ushlab turish markazi

Agar sizda shaxsni tasdiqlovchi, registratsiya hujjatlari bo'lmasa, shuningdek siz muhojirlik qoidalarini takroran buzgan bo'lsangiz — sud sizni ЦВСИГ (chet ellik fuqarolarni vaqtincha saqlash markazi) ga joylashtirish uchun qaror chiqarishi mumkin

Agar sizni ЦВСИГ ga joylashtirishsa, hujjatlaringizni tezroq tiklashga harakat qiling: agar shaxsiyat va chet el fuqaroligini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu holda ЦВСИГ da turish 2 yilgacha davom etishi mumkin.

Albatta mamlakatingiz konsuli bilan bog'laning yoki ijtimoiy tashkilotlarga bepul huquqiy yordam olish uchun murojaat eting.

ЦВСИГ №1 ГУ МВД России по Санкт-Петербургу и Ленинградской области:

Санкт-Петербург, Красное Село, Кингисеппское шоссе, 51А
8 812 573 15 19
8 812 573 15 21

ЦВСИГ №2 ГУ МВД России по Санкт-Петербургу и Ленинградской области:

Ленинградская область, г. Гатчина, ул. 120-й Гатчинской дивизии, д. 1, промзона 2, участок 3
8 81371 6 00 94

MDH mamlakatlarining Sankt-Peterburgdagi elchixona va konsulliklari bilan muloqot yo'llarini quyidagi manzildan topishingiz mumkin: migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru



ЦВСИГ ga joylashtirish holatida sizga Общественная наблюдательная комиссия (ОНК) yordam berishi mumkin. ОНК a'zolari chet ellik fuqarolarni ushlab turish sharoitlarini tekshirish huquqiga egadirlar, shuningdek bepul huquqiy yordam ko'rsatishlari mumkin.

Общественная наблюдательная комиссия (ОНК) по Санкт-Петербургу

191124, Санкт-Петербург, Суворовский пр. 62

mail@onkspb.ru

